


123. Sohalar va chegaralar

ichi
tashqarisi
chegarasi



1. Amallarni bajaring.

23	+	56	-	18	=			98	-	(79	-	57)	=		
48	-	13	+	41	=			82	-	(30	+	42)	=		





Shaklning chegarasi — bu uning atrofidagi yopiq chiziq.

Shaklning sohasi — bu uning ichki qismi.



2. Shakllarning chegaralarini havorangga bo'yang.
Har bir shaklning ichki sohasini sariq rangga bo'yang.




3. Xatjildda 35 ta uchburchak, ulardan 22 ta kam kvadrat bor. Xatjildda nechta shakl bor?



4. Shaklning chegarasiga A va B nuqtalarni, shaklning sohasiga P va T nuqtalarni, shaklning tashqi tomoniga K va M nuqtalarni qo'ying.



5. Chap tomondagi doiraning chegarasini havorangga bo'yang. O'ng tomondagi doiraning chegarasini qizil rangga bo'yang. Doiralarning umumiy sohani sariq rangga bo'yang.



Qaysi nuqta bir vaqtda ikkala doiraning ichida yotadi?

Qaysi nuqtalar faqat bitta doira ichida yotadi?



6. Bu davlatimiz xaritasi. Uning chegarasini qizil rangda chizing, chegara ichidagi sohani sariq rangga bo'yang.

